

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**«O'ZMELIOMASHLIZING» DAVLAT LIZING KOMPANIYASINI TASHKIL ETISH  
TO'G'RISIDA**

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2007 y., 52-son, 539-modda; 2009 y., 21-son, 252-modda; 2011 y., 7-8-son, 62-modda; 2012 y., 28-son, 322-modda; 2013 y., 26-son, 338-modda)*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g`risida» 2007-yil 29-oktabrdagi PF-3932-son Farmonini bajarish yuzasidan, shuningdek meliorativ texnikaning ko`p profilli mavjud parkini yangilash va shakllantirishni rag`batlantirish, sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyati bilan shug`ullanuvchi suv xo`jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlariga zamonaviy melioratsiya texnikasi va asbob-uskunalari yetkazib berilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi hamda Iqtisodiyot vazirligining davlat unitar korxonasi shaklidagi ixtisoslashtirilgan «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasini tashkil etish to'g`risidagi taklifiga rozilik berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki foydasining respublika byudjeti daromadiga yo`naltiriladigan qismi hisobiga «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasiga ustav fondini shakllantirish uchun 5 mldr so`m mablag` ajratsin.

2. Sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyati va boshqa suv xo`jaligi ishlari bilan shug`ullanuvchi suv xo`jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlariga, shuningdek suv iste`molchilar uyushmalariga va fermer xo`jaliklariga ularning topshirig`iga ko`ra xarid qilinadigan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini lizingga berish «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining asosiy vazifasi etib belgilansin.

*(2-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)*

3. «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasiga quyidagi funksiyalar yuklansin:

sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyati va boshqa suv xo`jaligi ishlari bilan shug`ullanuvchi suv xo`jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlari, shuningdek suv iste`molchilar uyushmalar va fermer xo`jaliklarining melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini yetkazib berish yuzasidan buyurtmanomalarini umumlashtirish;

*(3-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)*

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasining kafolat xatlari bilan tasdiqlangan moliyaviy manbalar hamda tender savdolari asosida mamlakatimiz korxonalarida va xorijiy korxonalarda melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini ishlab chiqarish yuzasidan buyurtmanomalarni joylashtirish;

joylashtirilgan buyurtmanomalarga muvofiq ishlab chiqariladigan melioratsiya texnikasi mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari uchun avans to`lovlarini va uzil-kesil hisob-kitoblarni o`z vaqtida amalga oshirish;

*(3-bandning to`rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)*

lizing shartnomalari tuzish va sug`oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyati va boshqa suv xo`jaligi ishlari bilan shug`ullanuvchi suv xo`jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlari, shuningdek suv iste`molchilar uyushmalar va fermer xo`jaliklariga melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini lizingga berish;

*(3-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)*

melioratsiya texnikasiga, mashinalariga va boshqa mexanizatsiyalash vositalariga texnik va servis xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish;

*(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qaroriga asosan oltinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)*

melioratsiya texnikasi mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari xarid qilishga mo'ljallangan resurslarni shakllantirish uchun donorlarning, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining mablag`larini imtiyozli asosda jaib etish;

*(3-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)*

lizing shartnomalari bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtida tushishini nazorat qilish.

4. Belgilansinki, «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining ijro etuvchi direktori lavozimga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi.

«O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining ijro etuvchi direktori maqomi, maishiy ta'minot, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shartlari bo'yicha vazir o'rindbosariga tenglashtirilsin.

*(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)*

5. «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi bir oy muddatda Kompaniya ustavini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritinsin.

6. Belgilab qo'yilsinki, melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini va boshqa suv xo'jaligi ishlari amalga oshiradigan suv xo'jaligi qurilish va foydalanish tashkilotlariga, shuningdek suv iste'molchilari uyushmalariga va fermer xo'jaliklariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi Kengashining qarori asosida 10 yil muddatga lizingga quyidagi shartlar bilan beriladi:

*(6-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)*

a) sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini va boshqa suv xo'jaligi ishlari amalga oshiradigan suv xo'jaligi qurilish tashkilotlari uchun, shuningdek suv iste'molchilari uyushmalariga va fermer xo'jaliklar uchun:

*(6-bandning «a» kichik bandi birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)*

lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari qiymatining 15 foizi avans shaklida ularning o'z mablag`lari hisobidan to'lanadi;

lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari qiymatining 85 foizi «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan, unga qarz asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan beriladigan mablag`lar hisobiga moliyalashtiriladi;

b) sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash faoliyatini va boshqa suv xo'jaligi ishlari amalga oshiradigan suv xo'jaligidan foydalanish tashkilotlari uchun lizingga berilayotgan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari qiymatining 100 foizi «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan, unga qarz asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan beriladigan mablag`lar hisobiga moliyalashtiriladi;

*(6-bandning «b» kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)*

v) melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini lizingga berish faqat olinayotgan texnikaning mulkiy tavakkalchiligini lizingning butun davri uchun

«O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi sug'urta polisi mavjud bo'lganda amalga oshiriladi;

g) Lizingga beruvchining daromad stavkasi (marjası) lizing shartnomalari tuzilishi sanasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak;

(6-band *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qarori tahririda* — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)

6-1. Belgilansinki, «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan o'z mablag'lari, boshqa jalb qilingan mablag'lar (unga qarz asosida Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tomonidan beriladigan mablag'lardan tashqari) yoki boshqa manbalar mablag'lari hisobiga melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini lizingga berishda lizing muddati va «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining daromad stavkasi (marjası) lizing shartnomasida belgilanadi»;

(6-1-band *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qaroriga asosan kiritilgan* — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)

#### 7. Quyidagilar:

«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki — kompaniyaning barcha hisob-kitoblariga xizmat ko'rsatish, to'lovlarning va lizing oluvchilar bilan lizing shartnomalari bo'yicha, melioratsiya texnikasini, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini yetkazib beruvchilar bilan yetkazib berish shartnomalari bo'yicha o'zaro moliyaviy majburiyatlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish vazifalarini bajargan holda «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining moliyaviy agenti etib;

(7-bandning ikkinchi xatboshisi *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 11 iyuldaggi 209-sonli qarori tahririda* — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)

«O'zagrosug'urta» davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi — lizingga beriladigan texnikani sug'ortalash vazifalarini bajargan holda «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining sug'urta agenti etib belgilansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2007-yil 31-oktabrdagi PQ-718-son qarori bilan tashkil etilgan Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi Kengashiga «O'zmeliomashlizing» kompaniyasi tomonidan lizingga beriladigan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalari ro'yxatini tasdiqlash huquqi berilsin.

(9-band *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan* — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)

10. Belgilab qo'yilsinki, mamlakatimizda va xorijda ishlab chiqarilgan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarining «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan, shuningdek melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalariga texnik va servis xizmati ko'rsatish uchun tovarlar, ehtiyoj qismlar va butlovchi buyumlarning «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining «Meliomashlizingservis» sho'ba korxonasi tomonidan xarid qilinishi tender asosida amalga oshiriladi.

«O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan xarid qilinadigan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini, shuningdek «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining «Meliomashlizingservis» sho'ba korxonasi tomonidan xarid qilinadigan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalariga texnik va servis xizmati ko'rsatish uchun tovarlar, ehtiyoj qismlar va butlovchi buyumlarni yetkazib beruvchilarni tanlash bo'yicha Idoralararo tender komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

(10-band *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda* — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

11. «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi «Ma'muriy bino maxsus servis» davlat sho'ba korxonasining Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy manzilidagi binosiga joylashtirilsin.

(11-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)

O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi «O'zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasini zarur aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqasi bilan ta'minlasin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rribosari R.S. Azimov zimmasiga yuklansin.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)

### **O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.MIRZIYOEV**

Toshkent sh.,  
2007-yil 21-dekabr,  
266-son

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 11-iyuldaggi 209-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — O'R QHT, 2012 y., 28-son, 322-modda)

**«O`zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasi tomonidan xarid qilinadigan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalarini, shuningdek «O`zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining «Meliomashlizingservis» sho`ba korxonasi tomonidan xarid qilinadigan melioratsiya texnikasi, mashinalari va boshqa mexanizatsiyalash vositalariga texnik va servis xizmati ko`rsatish uchun tovarlar, ehtiyoj qismlar va butlovchi buyumlarni yetkazib beruvchilarni tanlash bo`yicha Idoralararo tender komissiyasi**

### TARKIBI

- Kamolov A.S. — Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirining birinchi o`rinbosari, komissiya rahbari
- Xamraev Sh.R. — Qishloq va suv xo`jaligi vazirining o`rinbosari, komissiya rahbarining o`rinbosari
- Abdullaev M.R. — Moliya vazirining o`rinbosari
- Shermatov S.B. — Iqtisodiyot vazirining o`rinbosari
- Amonov I.S. — «Agrobank» ochiq aksiyadorlik tijorat banki boshqaruvi raisining o`rinbosari
- Yusupov A.A. — Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg` armasini boshqarish departamenti direktori
- Sulaymonov A.I. — «O`zmeliomashlizing» davlat lizing kompaniyasining ijrochi direktori
- Qodirov S.Y. — «O`zbekiston temir yo`llari» DAK boshqarmasi boshlig`ining o`rinbosari
- Karimov B.R. — O`zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi bosh mutaxassisini

Izoh:

Komissiya a`zolari boshqa ishga o`tganlari taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.

(3-ilova matni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 28-iyundagi 185-sonli qarori tahririda — O`R QHT, 2013 y., 26-son, 338-modda)